

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLYILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK:336.2 (575.1)

RADJABOV XUSHVAKT JAMSHEDOVICH

O'ZBEKISTONDA AKSIZ SOLIG'I MA'MURCHILIGINI
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish
uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
i.f.d.prof. Tuxliyev Bozor Karimovich

Toshkent -2025

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
I BOB. AKSIZ SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA HUQUQIY ASOSLARI.....	13
1.1-§ Aksiz solig'ining joriy etilishi, iqtisodiy mohiyati va huquqiy asoslari.....	13
1.2-§ Raqamli infratuzilmani rivojlantirish sharoitida aksiz solig'i hisob-kitobi va undirishning soliq ma'muriyatchiligidagi o'ziga xos xususiyatlari.....	28
1.3-§ Xorijiy mamlakatlarda aksiz solig'i ma'muriyatchiligini milliy soliq tizimiga uyg'unlashtirish masalalari.....	44
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	56
II BOB. AKSIZ TO'LANADIGAN TOVARLARNI SOLIQQA TORTISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	58
2.1-§ Aksiz solig'i bazasini shakllantirish va aksiz to'lanadigan tovarlarning iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish.....	58
2.2-§ Aksiz solig'i stavkalarini miqdoriy aniqligi va ijtimoiy-iqtisodiy tahlili.....	78
2.3-§ Aksiz solig'ini hisoblash tartibini iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning soliq ma'muriyatchiligining zamonaviy sharoitlariga moslashtirish.....	90
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	103
III BOB. O'ZBEKISTONDA AKSIZ SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	105
3.1-§ Iqtisodiyotning aksiz to'lanadigan tarmoqlarini barqaror va samarali rivojlantirishda aksiz solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish.....	105
3.2-§ Zamonaviy axborot tizimlari orqali aksiz solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish	122
Uchinchi bob bo'yicha ulosa.....	143
XULOSA.....	146
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	149
ILOVALAR.....	157

KIRISH

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.

Jahon iqtisodiyotida aksiz soliq ma'murchiligi davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlovchi asosiy manba bo'lib, iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Aksiz soliqlaridan samarali foydalanish orqali mamlakat ichida ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, raqobatbardoshligini oshirish imkoni paydo bo'ladi. Aksiz soliq ma'murchiligining ilg'or mexanizmini joriy etish, soliqlarni yig'ish jarayonini soddalashtirib, soliq organlari va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida shaffof hamkorlik muhitini yaratadi. Aksiz solig'ining qadim davrlardan hozirgi kunga qadar bu darajada keng tarqalishining asosiy sababi, fiskalligining ahamiyati va yig'uvchanlik darajasining yuqoriligidir. Bu haqda, hatto 1666-yilda fransuz iqtisodchisi F.Demezoni ta'kidlab o'tgan edi: "aksizning birgina o'zi boshqa barcha soliq tushumlari va undan ham ko'proqni berishga qodirdir"¹. Aksiz soliq ma'murchiligi jamiyatda iste'mol odatlarini shakllantirish, ko'p hollarda zararli yoki kamyob xomashyolardan tayyorlanadigan mahsulotlarning narxini boshqarish orqali iqtisodiy resurslarni to'g'ri taqsimlashda xizmat qiladi. Uzluksiz islohotlar va soliq ma'murchiligini modernizatsiya qilish aksizlar sohasida zamonaviy talablarga mos boshqaruv tizimini shakllantirib, iqtisodiyotda barqaror o'sish va samaradorlikni ta'minlaydi.

Jahonda globallashtirish jarayonlarining kuchayib borishi sharoitida aksiz soliq ma'murchiligini takomillashtirish muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar kengayib bormoqda. Elektron platformalar, raqamli monitoring, blokcheyn va boshqa axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali soliq hisobotlarini shaffoflashtirish, aksiz soliqlariga oid normativ-huquqiy hujjatlarni zamonaviylashtirish, milliy qonunchilikni xalqaro me'yorlar bilan muvofiqlashtirish, aksiz soliqlarini hisoblash hamda to'lash protseduralarini optimallashtirish, aksiz soliqlari stavkalaridagi o'zgarishlarning aholi turmush darajasi, bozor rag'batlari va tegishli tarmoqlar

¹ Malov V.N., Kolber J.B. Absolyutistskaya byurokratiya i fransuzskoye obshchestvo. -M.: «Nauka», 1991. C.90.

rivojiga ta'sirini har tomonlama o'rganish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda aksiz solig'i ma'murchiligini takomillashtirish yuzasidan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish orqali iqtisodiy rivojlanishga turtki berish, shuningdek, investitsiyaviy muhitni yaxshilash, 2026-2027-yillarga qadar alkogol va tamaki mahsulotlari, shuningdek, shakar uchun import va mahalliy ishlab chiqarishda aksiz solig'i stavkalarini bosqichma-bosqich birxillashtirish, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish doirasida elektron xizmatlar joriy etish, davlat soliq organlarining faoliyatini takomillashtirish hamda korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni kuchaytirish orqali soliq nazoratining samaradorligi oshirish, milliy soliq qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti talablariga muvofiqlashtirish maqsadida ayrim imtiyozlar va subsidiyalar bosqichma-bosqich bekor qilish, aksiz solig'i undirish mexanizmining samaradorligini oshirish maqsadida nazorat mexanizmlari takomillashtirish, soliq hisobotlarini avtomatlashtirish va raqamli monitoring tizimlarini joriy etish orqali soliq qonunchiligiga rioya qilish darajasini oshirish, aksiz solig'i tizimidagi o'zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini o'rganish orqali uning barqarorligi va samaradorligini ta'minlash bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar jumlasiga kiradi. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda belgilangan chora-tadbirlar yechimiga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2019-yil 24-iyuldagi PF-5771-son “Aksiz solig'iga tortiladigan ayrim mahsulot turlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilishni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining 2018-yil 13-apreldagi AV-412-3-son “O'zbekiston Respublikasi hududiga jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni aksiz solig'i solinmasdan olib

kirishning cheklangan normalari, shuningdek unga o'zgartirishlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida", 2018-yil 1-fevraldagi AV-2254-1-son "“Benzin, dizel yoqilg'isi va aviakerosin uchun qat'iy miqdorda belgilangan aksiz solig'i stavkalarini qayta ko'rib chiqish to'g'risida”gi buyruqni o'z kuchini yo'qotgan deb topish haqida", 2017-yil 23-noyabrdagi AV-2328-2-son "Chakana savdo tarmog'ida sotiladigan oltindan ishlangan zargarlik buyumlariga aksiz solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaror, shuningdek unga o'zgartirishlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda aksiz soliq ma'murchiligini takomillashtirishga oid takliflarni ko'plab klassik olimlar ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlar A.Smit, D.Rikardo, A.Atkinson, K.Makkonnell, S.Bryu, A.Busgin, R.Kouz, M.Fridman, A.Laffer, Y.Shumpeter, G.Menkyu, V.Panskov, U.Petti, A.Pogorleskiy, D.Rikardo, P.Samuelson, A.Smit, A.Sokolov, S.Sutrin, V.Tverdoxlebov, E.Teyt, D.Tixonov, S.Fisher, T.Yutkinalar va boshqa xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan². Kichik va o'rta biznesni soliqqa tortish mexanizmini

²Адам Смит о природе капитала (аудиокнига MP3) (сборник), Исследование о природе и причинах богатства народов livelib.ru: <https://www.livelib.ru/author/149932/top-adam-smit>, Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения, Антология экономической классики. ISBN: 978-5-699-18745-4 Год издания: 2007, Аткинсон А. Управленческий учет, Год издания: 2016 Издательство: Вильямс., Brue S. L., MacPhee C. From Marx to Markets: Reform of the University Economics Curriculum in Russia // Journal of Economic Education. Vol. 26, № 2, Spring 1995., Макконнелл К. Р., Брю С. Л., Флинн Ш. М. Экономикс: принципы, проблемы и политика: Учебник: Пер. с англ. 21-е изд.. — М.: Инфра-М, 2019. — 1152 с. — ISBN 978-5-16-012985-3., Бусыгин — статья из Большой советской энциклопедии, Коуз Р. Фирма, рынок и право / пер. с англ. Б. Пинскера. — М.: Дело ЛТД, 1993. — 192 с. — ISBN 5-86461-133-6., Блауг М. Фридмен, Милтон // 100 великих экономистов после Кейнса = Great Economists since Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. — СПб.: Экономикс, 2009. — С. 316—321. — 384 с. — (Библиотека

soddalashtirishni umumiy jihatlari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari A.Vahobov, M. Almardonov, B.Tuxliev, E.Gadoev, N.Kuzieva, D.Mutalova, Q.To‘xsanov, Sh.Babaev, F.Jumaniyazova, B.Ibragimov, U.Normurzayev va boshqalar ilmiy ishlarida tahlil qilingan³. Shuningdek, kichik va o‘rta biznes sub’ektlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot olib borgan D.Mutalova, Q.To‘xsanov, Sh.Babaev, F.Jumaniyazova, N.Ashurova, Q.Bozorov, O.Gaybullayev, I.Jalolov, M.Kamilov, A.Mamanazarov, I.Niyozmetov, U.Radjabov, Sh.To‘raev, B.Umarov, I.Yuldashev, M.Eshonov va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan. Yuqorida nomlari qayd etilgan olim va mutaxassislar tomonidan soliqlarning nazariy asoslari, iqtisodiy mazmuni, milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va yalpi ichki mahsulotni taqsimlashdagi roli va ahamiyati to‘g‘risida ko‘plab ilmiy fikrlar hamda mulohazalar bildirilgan. Lekin, kichik va o‘rta biznes sub’ektlarini soliqqa tortish mexanizmining soddalashtirishini ta’minlash va unga tasir etuvchi omillarni tahlil qilish uslubiyoti kabi masalalar ilmiy jihatdan nisbatan kam tadqiq etilgan.

O‘zbekistonda aksiz soliq ma’murchiligini takomillashtirishga muhim jihatlardan biri soliqlarni adolatli taqsimoti bo‘lib, aksiz solig‘i hisob-kitoblari va uning bazasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda soliq undirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ammo bu borada mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Ayrim tadqiqotlar mazkur muammoning soliqqa tortish jarayonlari bilan va uning huquqiy jihatlari bilan cheklangan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat

«Экономической школы», вып. 42). — 1500 экз. — ISBN 978-5-903816-03-3., Нуреев Р. М. Й. А. Шумпетер: роль схоластики в истории экономического анализа // Экономический вестник Ростовского государственного университета. — 2005. — Т. 3. — № 4. — С. 20-27., Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Избранное / Д. Рикардо; [пер. с англ.; предисловие. П.Н. Клюкина]. — М.: Эксмо, 2008. — 960 с. — (Антология экономической мысли), Юткина Т.Ф. Налоги и налогообложение: Учебник. — 2-е изд., перераб. и доп. — М-ИНФРА-М, 2013. — 576 с. — (Серия «Высшее образование»).

³ Вахобов А., Маликов Т. Молия: дарслик. — Т.: Ношир, 2011. — 712 б., Альмардонов М. Тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришга солиқ тизимининг таъсири. Монография. — Т.: 2003. — 233 б.; Гадоев Э. ва бошқ. Солиққа оид ҳатолар. — Т.: «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси» нашриёт уйи, 1996. -128 б.; Қўзиева.Н. Хорижий инвестиция иштирокидаги корхоналар молия ва кредит механизмини такомиллаштириш йўллари. — Т.: «ИQTISOD-MOLIYA», 2006, — 296 б, Муталова Д. Хўжалик юритувчи субъектларга "Кичик бизнес субъекти" мақомини берувчи мезонларни такомиллаштириш МДМ, Иқтисодиёт ва таълим, 78-81, Базаров К.Т. Механизм налогообложения прибыли предприятий: проблемы и пути их решения. автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. — Т., 1998.— 20 с.;

iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta’minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aksiz soliq ma’urchiligini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aksiz solig‘i bo‘yicha soliq bazasini aniqlash va aksiz solig‘ini to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisoblashni nazorat qilishni ilmiy-nazariy jihatlarini hamda uning o‘ziga xos jihatlariga oid ilmiy yondashuv shakllantirish;

ishlab chiqaruvchilar uchun aksiz solig‘i bo‘yicha ishlab chiqarishda soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiyalash tizimni o‘rganish va uni yanada takomillashtirish chora-tadbirlarni belgilash;

O‘zbekistonda aksiz solig‘i ma’urchiligini sohalar bo‘yicha amaliyotdagi holatini o‘rganish va ularni undirishning huquqiy asoslarini tadqiq qilish;

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi chuqurlashib borishi va rivojlanishida aksiz solig‘i ma’muriyatchiligiga oid muammolarining yuzaga kelish sabablarini aniqlash va bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

O‘zbekistonda aksiz solig‘i ma’urchiligini takomillashtirish bo‘yicha xorij tajribasini o‘rganish va respublikamizdagi aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlarni tendensiya bilan qiyosiy tahlil qilish;

davlat soliq xizmati organlari tomonidan aksiz markalari bilan markirovkalash tizim bo‘yicha taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqotning ob’ekti bo‘lib O‘zbekistonda aksiz solig‘i to‘lovchilarning faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini aksiz solig‘ini hisob-kitobi va aniqlangan bazalari bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy hamda tashkiliy-huquqiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik, ilmiy abstraksiyalash, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

etil spirtini va alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishda soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan elektron hisobga olish, o'lchash uskunalaridan foydalanish ustidan tizimli nazoratni ta'minlash lozimligi hamda belgilangan talab buzilgan taqdirda, javobgarlikka tortish hamda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarni maxsus hisobga qo'yish uchun foydalaniladigan xavfni tahlil qilish tizimida mezon sifatida etil spirtini, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar litsenziya talablarning buzilishini nazarda tutish taklifi asoslangan;

aksiz to'lanadigan xizmatlar toifasiga kiritiluvchi telekommunikatsiya mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatadigan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslarini soliq to'lovchilar tarkibi, soliq solish ob'ekti hamda soliq bazasidan chiqarib tashlash orqali ular tomonidan aksiz solig'i to'lashni bekor qilish asosida aksiz soliq ma'murchiligini takomillashtirish taklifi asoslangan;

aksiz solig'i stavkalarini tarkibida shakar mavjud bo'lgan meva sharbatlari, kvas, kompot, salqin choylarga ham gazlangan shirin ichimliklar bilan bir xil miqdorda 1 litri uchun 500 so'm, oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil spirtining boshlang'ich fraksiyasi 1 litri uchun 7450 so'm miqdorida belgilash asosida aksiz soliq ma'murchiligini takomillashtirish taklifi asoslangan;

soliq xizmati organlari tomonidan aksiz markalari bilan markirovka qilinmagan ko'piklanadigan va tabiiy vino mahsulotlari majburiy raqamli markirovkalash orqali to'liq hisobga olinishi jarayonlarini davlat soliq organlari xodimlari nazorat qilinishini ta'minlash hamda ishlab chiqarilishi va realizatsiya qilinishi samaradorligi monitoringini o'rnatish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aksiz solig'ini hisob-kitobi va aniqlangan bazalari bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarining iqtisodiy mohiyatining yangicha talqini berilgan;

aksiz solig'ini hisob-kitobi yuzasidan soliq tizimidagi ahamiyati asoslangan va uni amalga oshirishning xorij tajribasi asosida takliflari ishlab chiqilgan;

ishlab chiqaruvchilar uchun etil spirti va alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqarishda soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan elektron hisobga olish va o'lchash uskunalaridan foydalanish majburiyligi belgilash kerakligi bo'yicha taklifi berilgan;

soliq xizmati organlari tomonidan aksiz markalari bilan markirovka qilinmagan ko'piklanadigan va tabiiy vino mahsulotlari majburiy raqamli markirovkalash orqali to'liq hisobga olinishini davlat soliq organlari xodimlari nazorat qilinishi kerakligi hamda ishlab chiqarilishi va realizatsiya qilinishi samaradorligini tahlil qilib borish zarurligi yuzasidan bergan taklifi inobatga olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Statistika agentligi, Soliq qo'mitasi hamda Kadastr agentligi rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining Soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy tavsifdagi xulosa va takliflardan aksiz soliq ma'murchiligini takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy va soliq tizimiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimizda soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, aksiz soliq ma'murchiligini takomillashtirish, soliq qonunchiligi va budget-soliq siyosati konsepsiyasi loyihalarini ishlab chiqishda, davlat soliq xizmati organlari xodimlariga metodik qo'llanma sifatida soliqqa tortish va soliq nazorati shakllarini takomillashtirish, aksiz soliq ma'murchiligini bo'yicha darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda aksiz solig'i ma'murchiligini takomillashtirish yo'llari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

etil spirtini va alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishda soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan elektron hisobga olish, o'lchash uskunalaridan foydalanish ustidan tizimli nazoratni ta'minlash lozimligi hamda belgilangan talab buzilgan taqdirda, javobgarlikka tortish hamda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarni maxsus hisobga qo'yish uchun foydalaniladigan xavfni tahlil qilish tizimida mezon sifatida etil spirtini, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar litsenziya talablarning buzilishini nazarda tutish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-73-son qarori 15-bandida tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2023-yil 7-yanvardagi 29-01093-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq xizmati organlari tomonidan aksiz solig'i to'lovchilar bilan o'zaro hisob-kitob qilishda qulay imkoniyat yaratiladi;

aksiz to'lanadigan xizmatlar toifasiga kiritiluvchi telekommunikatsiya mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatadigan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslarini soliq to'lovchilar tarkibi, soliq solish ob'ekti hamda soliq bazasidan chiqarib tashlash orqali ular tomonidan aksiz solig'i to'lashni bekor qilish asosida aksiz soliq ma'murchiligini takomillashtirish taklifi inobatga olinib, Soliq kodeksining 283-284-285-286-moddalaridan chiqarib tashlangan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2025-yil 22-yanvardagi 16/1-08648-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida aksiz solig'i ma'murchiligini takomillashib, mobil aloqa xizmatlari bo'yicha operatorlar ixtiyorida 1 trln. so'm hajmidagi mablag'lar qolishiga imkon yaratgan;

aksiz solig'i stavkalarini tarkibida shakar mavjud bo'lgan meva sharbatlari, kvas, kompot, salqin choylarga ham gazlangan shirin ichimliklar bilan bir xil miqdorda 1 litri uchun 500 so'm, oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil spirtining boshlang'ich fraksiyasi 1 litri uchun 7450 so'm miqdorida belgilash

asosida aksiz soliq ma'murchiligini takomillashtirish taklifi asosida Soliq kodeksining 289³-moddasiga o'zgartirish kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-812-son Qonuni asosida Soliq kodeksining 289²-moddasida tasdiqlanib, amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2025-yil 22-yanvardagi 16/1-08648-son va 2023-yil 7-yanvardagi 29-01093-son ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish orqali soliq to'lovchilarga yanada qulaylik yaratishga xizmat qiluvchi adolatli soliqqa tortish imkoni yaratilgan;

soliq xizmati organlari tomonidan aksiz markalari bilan markirovka qilinmagan ko'piklanadigan va tabiiy vino mahsulotlari majburiy raqamli markirovkalash orqali to'liq hisobga olinishi jarayonlarini davlat soliq organlari xodimlari nazorat qilinishini ta'minlash hamda ishlab chiqarilishi va realizatsiya qilinishi samaradorligi monitoringini o'rnatish taklifi amaliyotga joriy etilib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-noyabrda 665-son qarorida tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2023-yil 7-yanvardagi 29-01093-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ushbu aksiz markalari bilan markirovka qilinmagan ko'piklanadigan va tabiiy vino mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va ularni realizatsiya qilishda aksiz solig'ini hisob-kitob qilish va soliq bazasini aniqlashda qulay imkon yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy konfrensiyalarda, jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konfrensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 5 ta ilmiy ish shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 150 betni tashkil qiladi.